


Qurilish ishlari

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida Xorazm viloyatida 1321,7 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 127,3 mlrd. so'mlik yoki o'sish sur'ati 120,5 foizni tashkil qilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 9,6 foizni tashkil qildi.



Qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo'yicha 2018 yil yanvar- sentyabr oylarida mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1242,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 94,0 foizni tashkil qildi. Shuningdek mulkchilikning davlat mulki shakldagi qurilish tashkilotlari tomonidan 79,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 6,0 foizni tashkil etdi.

